

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSI 211-MODDASI: JINOYAT-HUQUQIY TABIATI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Kurbanova M.B. -
TerDU o‘qituvchisi

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev 2025 yil 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida so‘zlagan nutqida korrupsiyani islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov sifatida baholadi. [1] Shu bilan birga, “Korrupsiyaning oldini olish – davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanishi”ni alohida ta’kidladi. [2]

Hozirgi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyo mamlakatlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Korrupsiya davlat boshqaruvi tizimining samaradorligiga putur yetkazib, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarining buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, pora bilan bog‘liq jinoyatlar esa korrupsiyaning eng xavfli va keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

2024 yilda O‘zbekistonda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar soni hamda davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdorining oshganligi kuzatildi. Bu haqda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxanov 2025 yil 16-sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida ma’ruza”da alohida ta’kidlab o‘tilgan.

“Korrupsiya” atamasi lotincha *corrumpere* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzilish”, “yiringlash”, “tanazzul” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi zamonaviy talqinda korrupsiya mansabdor shaxslar tomonidan o‘zlariga berilgan vakolatlardan qonun va axloq normalariga zid ravishda shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanishni ifodalaydi.

Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida tizimli xarakterga ega bo‘lib, u ommaviylik, barqaror takrorlanish, yashirin (latent) shakllarda namoyon bo‘lish hamda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sohalariga chuqur singib borish kabi belgilar bilan tavsiflanadi. Korrupsion xatti-harakatlarning sezilarli qismi fosh etilmasdan qolayotgani ushbu jinoyatlarni aniqlash, hisobga olish va ularga obektiv huquqiy baho berish jarayonini murakkablashtiradi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2020 yil 31 dekabrda Vazirlar Mahkamasining 829-son qarori bilan korrupsiyaga oid jinoyatlar tasnifi aniq belgilanganidan so‘ng, statistikada 2021 yildan boshlab jinoyat sodir etgan shaxslar soni keskin oshishi kuzatilgan.

2024 yilda korrupsiya bilan bog‘liq 4649 ta jinoyat aniqlanib, 7354 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan jinoyatlar sonining 12,6 foizga, sudlanganlar sonining esa 12,5 foizga oshganini ko‘rsatadi.

Korrupsiyadan davlat manfaatlariga yetkazilgan zarar miqdori 2,81 trillion so‘mni tashkil etib, hududlar kesimida eng katta zarar Andijon viloyati, Toshkent shahri, Namangan va Sirdaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelgan.

Shuningdek, 2024 yilda:

pora olish jinoyatlari 31,7 foizga,

pora berish jinoyatlari 7,6 foizga,

firibgarlik 27,4 foizga oshgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar korrupsiyaga qarshi kurashish masalasining naqadar dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. [3]

Jinoyat huquqi nazariyasida “poraxo‘rlik” tushunchasi tor va keng ma’noda qo‘llaniladi. Tor ma’noda u faqat pora olish jinoyatini anglatadi. Keng ma’noda esa pora olish, pora berish hamda pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarini o‘z ichiga oladi (JK 210–212-moddalar).

Ayrim olimlar poraxo‘rlikni yagona jinoyat sifatida baholasa, boshqalar uni mustaqil jinoyatlar majmui deb hisoblaydi. M.X. Rustambaevning fikricha, poraxo‘rlik boshqaruv organlari va jamoat birlashmalari faoliyatiga qarshi qaratilgan uch mustaqil mansab jinoyatlari - pora olish,

pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish sifatida boshqa jinoyat bilan bog'liq bo'lmagan holda sodir etilishi mumkin emas. Ular shu tufayli bir biri bilan shu darajada bog'liq bo'ladiki, pora olish faktining mavjud emasligi pora berish faktini ham istisno etadi. [4]

Korrupsiyani tasniflashda A.I. Gurovning tasnifi alohida o'rin egallaydi. U mazkur hodisani uyushgan jinoyatchilikning eng asosiy belgilaridan biri deb hisoblaydi va korrupsiyaning quyidagi uchta asosiy shaklini ajratishni taklif qiladi:

1) siyosiy korrupsiya – bunda hokimiyat apparati amaldorining axloq va qonun normalariga zid ravishda pora olishdan iborat faoliyati emas, balki “sizdan ugina, bizdan bugina”, “qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi” kabi tamoyillar hukmron bo'lgan urug'-aymoq, oilaviy rishtalar, qarindosh-urug'chilik munosabatlari nazarda tutiladi. Korrupsiyaning bunday shakllari urug'-qabila munosabatlari ma'lum o'ringa ega va urf-odat ko'rinishidagi normalar faol amal qiladigan hududlarda yaqqol namoyon bo'ladi;

2) poraxo'rlik faoliyati bilan bog'liq korrupsiya – jinoyatchilarga haq evaziga muayyan xizmat ko'rsatuvchi mansabdor shaxslarni pora berib og'dirish (sotib olish) dan iborat bo'lib, bu yerda har ikki tomon ham tamagirlik maqsadlarini ko'zlab, go'yoki bir-biriga intiladi;

3) kriminal korrupsiya – tegishli toifadagi mansabdor shaxslarni uzoqni ko'zlagan maqsadda jinoiy faoliyatga jalb qilish bilan bog'liq korrupsiyaviy xulq-atvor shakllari bo'lib, bu amaldorlar muayyan masalalarni hal qilish uchun alohida qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida og'diriladi. [5]

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 211-moddasi davlat xizmatidagi korrupsion xatti-harakatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy vosita sifatida e'tiborga loyiq. Ushbu modda pora berish jinoyatini aniqlaydi va uning jinoyat-huquqiy tabiatini, tarkibiy elementlarini hamda javobgarlik mexanizmlarini belgilaydi.

1. Jinoyatning ob'ekti va ijtimoiy ahamiyati

211-modda asosida pora berish jinoyati davlat va jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi faoliyat sifatida qaraladi. Jinoyatning obekti sifatida davlat organlarining qonuniy vakolatlarini to'g'ri amalga oshirish tizimi, shuningdek, fuqarolarning va jamiyatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari nazarda tutiladi. Pora berish orqali shaxs mansabdor shaxsni o'z xohishiga binoan harakat qilishga yoki qilmaslikka majbur qilishi mumkin, bu esa davlat boshqaruvi va ijtimoiy adolat prinsiplariga bevosita putur yetkazadi.

Pora predmeti har qanday moddiy qimmatliklar (ashyolar, buyumlar), shuningdek turli mulkiy naf yoxud mulkiy tusdagi xizmatlar bo'lishi mumkin.

Mazkur holatda **moddiy qimmatliklar** deganda, moddiy qimmatga ega bo'lgan har qanday qimmatliklar (pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan, xorijiy valyuta, qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar) tushuniladi.

Mulkiy naf deganda, pora oluvchiga tekinga va (yoki) past narxlarda amalga oshiriladigan mulkiy tusdagi turli xil xizmatlar va (yoki) naf tushunilishi lozim. Porani beruvchi va oluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga qonuniy bitim xususiyatini berish maqsadida ular tomonidan pudrat, qarz va hokazo shartnomalar tuzilishi holatlari ham huquqni qo'llash amaliyotida uchraydi.

Mulkiy tusdagi xizmatlar sanatoriyga yoki turistik sayohatga borish putyovkalarini, transportda yurish biletlarini berish, mansabdor shaxs xarajatlari yoki o'yin-kulgilari uchun pul to'lash, pora oluvchi foydasiga ta'mirlash, qurilish, qayta tiklash va boshqa ishlarni bajarishdan iborat bo'ladi. [6]

Mulkiy tusga ega bo'lmagan biron-bir foydalar pora predmeti bo'lmaydi. Masalan, mansabdor shaxs bilan jinsiy aloqaga kirish, ijobiy tavsifnoma, matbuotda chop etish, televideniya orqali ko'rsatish, tavsifnoma berish va boshqalar.

2. Ob'ektiv tomon va jinoyat tarkibi

Jinoyatning ob'ektiv tomoni pora berish harakati bilan ifodalanadi. Bu harakat shaxs tomonidan mansabdor shaxsga moddiy yoki boshqa qimmatbaho narsalarni berish, hamda uni pora beruvchi shaxs manfaatlarini yo'lida harakat qilishga yoki qilmaslikka majbur qilishni o'z ichiga oladi. Moddaning ilmiy tahlilida pora berish jinoyati mansabdor shaxsning vakolatlarini suiiste'mol

qilish xavfini oshiruvchi harakat sifatida ko'riladi. Shu jihatdan u poraxo'rlik institutining majburiy tarkibiy elementi sifatida ham qaraladi.

3. Sub'ekt va sube'ktiv tomon

211-modda bo'yicha jinoyat sub'ekti 16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxsdir. Sub'ektiv tomon esa bilish va irodaga asoslangan bo'lib, shaxs o'z harakatlarining qonunga zid ekanini anglab, shaxsiy manfaat uchun pora bergan bo'lishini talab qiladi. Shu bilan birga, jinoyatning mazmuni va sub'ektiv elementi uni qasddan sodir etilgan ijtimoiy zarar bilan bog'laydi, ya'ni pora beruvchi nafaqat moddiy manfaatni ko'zlaydi, balki korrupsion mexanizmlarni mustahkamlashga hissa qo'shadi.

Pora beruvchining manfaatlari deganda, nafaqat uning shaxsiy manfaatlari, balki uchinchi shaxslar, yaqin qarindoshlar, yaqin shaxslar va boshqa shu kabilarning ham har qanday manfaatlari tushuniladi.

Mansabdor shaxs qilmishini sharhlanayotgan modda bo'yicha kvalifikatsiya qilish uchun pora predmetini olish vaqti hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.[7]

4. Javobgarlik mexanizmlari

Ushbu modda pora berishning turli darajalarini nazarda tutadi:

Bazaviy holat: bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 100 baravarigacha jarima yoki 2 yildan 5 yilgacha ozodlikdan cheklash yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.

Og'ir holatlar: takroran sodir etilgan, ko'p miqdorda yoki uyushgan guruh manfaatlari uchun sodir etilgan pora berish – 5–15 yil ozodlikdan mahrum qilish.

Mazkur mexanizm jinoyat huquqi nuqtai nazaridan prevensiya va ogohlantirish vazifasini bajaradi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda qonuniy asoslarni mustahkamlaydi.

5. Javobgarlikdan ozod etish instituti

211-modda shuningdek, pora tovlamachiligi holatlarida shaxsni javobgarlikdan ozod etish mexanizmini belgilaydi. Agar shaxsga nisbatan pora so'rab tovlamachilik qilingan bo'lsa va u jinoyat sodir etilganidan keyin o'tgan 30 kun ichida ixtiyoriy ravishda vakolatli organlarga arz qilsa, sodir etilgan qilmishdan chin ko'ngildan pushaymon bo'lsa va jinoyatni fosh etishda faol yordam ko'rsasa, u jinoyat javobgarlikdan ozod qilinadi.

Ammo, pora bergan shaxsning javobgarlikdan ozod qilinishi uning xatti-harakatida jinoyat tarkibining yo'qligini anglatmaydi, shu sababdan bunday shaxslar jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilmaydi, ularning pora oluvchiga bergan pora predmetlari qaytarib berilmaydi.

Ushbu institut korrupsion jinoyatlarni fosh etish va yashirin, latent mexanizmlarni aniqlashga yo'naltirilgan rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Shu bilan birga, u pora beruvchi shaxsning huquqiy maqomini himoya qilish, jinoyat sodir etilgan ijtimoiy-moliyaviy muhitni barqarorlashtirish va davlat boshqaruvi tizimining qonuniy ishlashini ta'minlash funksiyalarini bajaradi. Mazkur institutning mavjudligi, shuningdek, jinoyatning takrorlanish xavfini kamaytirish, korrupsiyaga qarshi preventiv choralarini kuchaytirish va huquqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatchilikning kriminologik xususiyatlari o'zaro ta'sir o'tkazuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan sabablar majmuini tashkil etadi.

Pora berish jinoyatining asosiy ob'ekti – davlat va jamiyat manfaatlari, shuningdek, hokimiyatning qonuniy ishlash tizimi hisoblanadi. Sub'ekti pora beruvchi shaxs bo'lib, ko'pincha o'z shaxsiy yoki moddiy manfaatini ko'zlab harakat qiladi. Sub'ektiv tomondan jinoyat qasddan sodir etiladi. Shaxs o'z harakatining qonunga zid ekanligini biladi. Jinoyatning maqsadi – mansabdor shaxsning vakolatlaridan foydalangan holda moddiy yoki boshqa manfaatlarni olish.

Kriminologik nuqtai nazardan, bu jinoyat o'ziga xos motivga ega – pora olish orqali tezkor yoki qonuniy bo'lmagan manfaatga erishish. Ob'ektiv tomondan pora beruvchi shaxsning mansabdor shaxsga pul, moddiy yoki boshqa manfaatlarni berish orqali uni o'z vazifalarini qonunga zid bajarishga yoki bajarishdan bosh tortmaslikka majburlashidir.

Kriminologiyada jinoyatchi shaxsini o'rganishdan asosiy maqsad-jinoyatchilikni yuzaga keltiruvchi sabab va sharoitlarni o'rganish va shu asosda jinoyatchilikning oldini olishda zarur

boʻladigan usul hamda vositalarni ilmiy jihatdan ishlab chiqish va zarur tavsiyalar berishdan iborat. [8]

Olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tahlillar shuni koʻrsatadiki, korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar togʻrisida qatʻiy belgilangan omillar mavjud emas. Korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlar ham yagona bitta jinoyat tarkibini tashkil etmaganidek, ushbu turdagi huquqqa xilof xatti-harakatlarni sodir etuvchilarga ham komplekslilik xususiyati xosdir.

Korrupsion jinoyatchilarni mustaqil toʻrt guruhga boʻlish mumkin:

- 1) Korrupsioner – talon-taroj qiluvchi
- 2) Korrupsioner – mansabini suiisteʼmol qiluvchi
- 3) Korrupsioner – pora oluvchi
- 4) Korrupsioner – pora beruvchi

Korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlarni sodir etuvchi shaxslar boshqa turdagi jinoyat sodir etgan shaxslardan ancha farq qiladi. Koʻpincha korrupsion shaxslar- oilali, oliy maʼlumotga ega boʻlgan xodimlarni tashkil etadi. Bu turdagi shaxslar muqim ruhiy holat va dunyoqarashga ega boʻlishadi. [9]

Kriminologik kuzatishlarga koʻra, pora berish jinoyatlari koʻpincha yashirin shakllarda sodir etiladi, latent mexanizmlarga ega boʻlib, uni fosh etish va aniqlash murakkab, takroriy va tizimli boʻlishi mumkin, bu esa korrupsiya hodisasining ijtimoiy normalar bilan uygʻunlashganligini koʻrsatadi.

Jinoyat kodeksi 211-moddasi pora berish jinoyatini davlat xizmatida halollikni ragʻbatlantiruvchi, korrupsiyaga qarshi preventiv va fosh etuvchi vosita sifatida tartibga soladi. Ushbu modda nafaqat mansabdor shaxslarning javobgarligini, balki pora beruvchi shaxsning huquqiy maqomini ham nazorat qiladi. Shu bilan birga, u jinoyat huquqining ijtimoiy va normativ-huquqiy vazifalarini uygʻunlashtiruvchi muhim institut sifatida eʼtirof etiladi.

Xulosa

Yangi Oʻzbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini soʻzsiz taʼminlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini shakllantirish talab etiladi.

Pora berish jinoyatini tartibga soladi va uning jinoyat-huquqiy tabiati, tarkibi va javobgarlik choralari belgilaydi. Mazkur modda korrupsiyaga qarshi kurashning normativ-huquqiy asosini tashkil etadi va mansabdor shaxslarning davlat organlari, davlat ishtirokidagi tashkilotlar yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlaridagi vakolatlaridan qonunga xilof ravishda foydalanishga qarshi yoʻnaltirilgandir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, muallif tomonidan quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, Jinoyat kodeksi 211-moddasining amaliy qoʻllanilishini yaxshilash va sud amaliyotini yagona talablarga muvofiqlashtirish;

Ikkinchidan, Korrupsion risklarni aniqlash va kamaytirish uchun elektron monitoring va shaffoflik mexanizmlarini kuchaytirish;

Uchinchidan, Javobgarlikdan ozod etish institutini samarali qoʻllash orqali jinoyatlarni fosh etish va latent korrupsion shakllarni kamaytirish.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev. Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy kengashi yigʻilishida soʻzlagan nutqi. 05.03.2025 yil
2. Oʻsha manba.
3. A.E.Burxanov. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etgan Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha milliy maʼruzasi. 16.09.2025 yil
4. Rustambayev M.X. Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – T.: Yuridik, 2025. – 115 b.
5. Gurov A.I. Organizovannaia prestupnostʼ – ne mif, a realʼnostʼ [Organized crime is not a myth, but a reality]. Moscow, Znanie Publ., 1992, pp. 21–22.
6. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 24 sentyabrdagi “Poraxoʻrlik ishlari boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida”gi 19-son qarori, 2-band.

7. O'sha manba, 3-band, 2-xatboshi.
8. Kriminologiya. Darslik. Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan // Professor. Z.S.Zaripovning umumiy tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2008. – b. 67.
9. Kriminologiya. Darslik. M.X.Rustambayev, Q.R.Abdurasulova, G.B.Nurmuhammedova. –T.: Yuridik, 2024-y. 298. b.
10. A. A.Zufarov. Poraxo'rlikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari, nazariya va amaliyot. Avtoreferat. T.,2005-y. 28-b.
11. R.X.Xojiyeva. Pora olish-berishda vositachilik qilish javobgarlik belgilangan jinoyat qonunchiligini takomillashtirish. Avtoreferat. T.,2025-y. 15-b.

REZYUME:

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 211-moddasida nazarda tutilgan pora berish jinoyatining jinoyat-huquqiy tabiati va kriminologik tavsifi tahlil qilinadi. Pora berish jinoyatining obyekt, obyektiv tomoni ochib berilib, uning ijtimoiy xavfliligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: pora berish, poraxo'rlik, korrupsiya, jinoyat tarkibi, mansabdor shaxs, jinoyat-huquqiy tahlil, kriminologiya, ijtimoiy xavflilik.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется уголовно-правовая природа и криминологические характеристики преступления взяточничества, предусмотренного статьей 211 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Раскрываются объектные и объективные аспекты преступления взяточничества, обосновывается его социальная опасность.

Ключевые слова: взяточничество, коррупция, структура преступления, должностное лицо, уголовно-правовой анализ, криминология, социальная опасность.

RESUME:

This article analyzes the criminal-legal nature and criminological characteristics of the crime of bribery, stipulated in Article 211 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The object and objective aspects of the crime of bribery are revealed, and its social danger is substantiated.

Keywords: bribery, bribery, corruption, crime structure, official, criminal-legal analysis, criminology, social danger.